

# **YOSHLAR ONGINI RIVOJLANTIRISHDA FALSAFA FANINING O'RNI**

**Xaitov Elmurod Bekmurodovich  
University of science and technologies  
Ta'lif sifatini nazorat qilish bo'limi  
boshlig'i, s.f.f.d (PhD)**

## **Annotatsiya**

Ushbu maqolada shaxs, inson ongini rivojlantirishning dolzarb masalalari yoritilgan bo'lib, bu falsafa fani nuqtai nazaridan ilmiy-amaliy jihatdan tahlil qilib berildi. Inson tafakkuri juda ko'p jarayonlarda bugun qadriyat darajasiga chiqishi lozim bo'lib turibdi. Chunki, biz maqolada faqat, ijimoiy jihatdan yondoshdik, albatta kelgusi ishlarmizda buni siyosiy, iqtisodiy tomonlarini ham yoritib berishga harkat qilamiz.

Kalit so'zlar: Falsafa, inson, tafakkur, suniy intelekt, texnologiya, uzlusiz ta'lif.

## **Annotation**

In this article, the current issues of the development of the individual, human consciousness, have been analyzed scientifically and practically from the point of view of the science of philosophy. Human thinking has to rise to the level of value in many processes today. Because, in the article, we approached it only from a social point of view, we will definitely try to cover the political and economic aspects of it in our future work.

Key words: Philosophy, human, thinking, artificial intelligence, technology, continuous education.

Falsafa fani jamiyat taraqqiyotida mavjud qarashlarni, fikrlarni va g'oyalarni talabalar ongida ma'lum bir falsafiy tushinchalar orqali yaxlit holda o'rgatadigan fandir. Falsafa fani o'z xususiyatiga ko'ra jamiyatdagi bilimlarni yaxlit holda barcha sohalar orqali fanlarni o'z ichga olgan holda talabalarda qiziqish va tushinchalar hissini shakllantiradi.

Falsafa inson tafakkurni takomillashtirishda kundalik bilimlar bilan emas, balki ularni umumlashtirish asosida ilmiy qarashlarga, diniy qarashlarga, axloqiy qarashlarga asoslangan umumiyligi va yaxlit xulosalar tizimidir. Falsafa borliq, bilish, tafakkur tizimi shakllari, shaxs, jamiyat, hukm, xulosalar asosida bundan necha ming yillar oldin avlodlar qoldirgan meros, o'sha davrning ilmiy, amaliy yutuqlarini umumlashtirib, tahlil qilgan holda olam va odam o'rta sidagi ijtimoiy munosabatlarni bir-biri bilan bog'laydi, progressiv o'sish jarayonida bir-birini anglaydi va kelajak istiqbol rejalarini belgilaydi.

Falsafa fani o'z ichiga Qadimgi Misr davrdagi ijtimoiy-falsafiy qarashlardan tortib to bugungi kungacha bo'lgan neopozitivizm falsafiy qarashlarigacha bo'lgan davrni o'rganib insoniyat tafakkuri uchun beqiyos xizmat qilib kelmoqda.

Inson mavjud realikdagi narsa va hodislarni kuzatib, o'rganib, tahlil qilib anglab yetadi. Mavjud borliq insonga turli xil mo'jizaviy qarashlarni yuzaga kelishini inom qiladi. Ana shu borliqni inson idrok qilish uchun albatta o'z tafakkuridagi qarashlarga murojaat qiladi. Fan aynan mana shu qarashlar asosida

o‘z takliflarni, tavsiyalarini va xulosalarini ilmiy tushinchalar orqali yoritib beradi. Biz o‘rganyotgan Falsafa fani talabalardagi olam, odam va jamiyat haqidagi qarashlarni shu ilmiy tushinchlar orqali o‘z tasavvurida tahlil qilishga o‘rgatadi va ular istiqboli uchun zamin hozirlaydi.

Inson o‘z tafakkurini bor yo‘g‘i 1-2 %ni ishlata oladi. Albatta nima uchun degan savol tug‘ilishi tabiiy? Jahon ilm-fan tamaddunida juda katta nom qozongan olimlar, fozillar juda ko‘p. Lekin ular tafakkurini ham bor yo‘g‘i 8-9% gacha ishlata olgan xolos. Shular ichida albatta e’tirof etish kerakki, Albert Eynshteynning tafakkuri 14% ishlagan.

Biz talabalar tafakkurining bugungi murakkab va o‘ta tahlikali zamonda fikrlash doirasini shakllantirishning yangi yo‘llari va usullari ustida ishlashimiz lozim. Hozir insoniyatning ayrim qatlamlari, xususan, yoshlar o‘z maqsadlariga qiyinchiliklarsiz erishmoqda. Chunki fan-texnika yutuqlari bu borada juda katta imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.

Inson tafakkuri qiladigan ishni tobora yaqindagina hayotimizga kirib kelgan “suniy intelekt” egallab bormoqda. Bu esa inson o‘z tafakkuri ustida ishlash samaradorligini pasaytirishga sababchi bo‘lmoqda. Albatta bizga texnologiya kerak, lekin “inson fikrlashdan” to‘xtar ekan, insoniyatni juda katta global tafakkur inqirozi kutmoqda. Mana shunday og‘ir va nihoyatda murakkab taraqqiyot tendensiyasi kishilik jamiyatni oldiga turli xil savollar qo‘ymoqdaki, bu esa inson o‘z tafakkuri ustida har kuni mashq qilishga sabab bo‘lmoqda.

Oliy ta’lim tizimida bugun raqobatlashayotgan Davlat OO‘YU bilan NOO‘YUlarining birinchi galdagi vazifasi o‘z tasarrufidagi talabalar dunyoqarashini shakllantirish, ular tafakkurining texnologiyasini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat bo‘lishi lozim. Aynan bugun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan malaka talablari orqali o‘quv rejalarga kiritilayotgan “Falsafa” fani ham talabalardagi mavjud fikr uyg‘oqligini, tafakkur texnologiyalarini yangi bosqichga ko‘tarishdan iborat ekanligini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yan.

Falsafa olam va odam o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar dialektikasini o‘rganar ekan, albatta bir tarafda olamni yaxlit moddiy unsurlar asosida o‘rganadigan materializm, ikkinchi tarafda esa uni bir butun yaxlit holda o‘rganadigan idealizm kabi tushunchalar va bu tushunchalarni inson ongida idrok bo‘lishi jarayonlarini tahlil qiladi va o‘rgatadi.

Pifagor “olam assosi sonlar (raqamlar) bilan bog‘lanadi va borliqda aks etadi” deb aytganiday dunyonи albatta raqamlarsiz ham tasavvur qilib bo‘lmaydi. Yoki Abu Nasr Forobiy bobomiz “borliq bu yagona Ollohning o‘zi”dir deganida ham to‘g‘ri mulohaza yurtiganligiga guvoh bo‘lamiz.

Jamiyat taraqqiyotida inson olam va undagi jonli va jonsiz predmetlarni harakatlar qonuniyatini o‘rganar ekan, “...yo‘qdan bor bo‘lgani kabi, bordan yo‘q bo‘lish” jarayoni ham insoniyat oldiga juda ko‘p muammoli masalalarni qo‘ymoqdaki bu albatta hech bir ongli mavjudotni o‘ylantirmasdan qo‘ymaydi.

Oxirgi 10-15 yil ichida inson tafakkuri borgan sari sayozlashib bormoqda. Bu esa dunyo miqiyosida ommaviy savodsizlikni keltirib chiqarshga sabab bo‘lishi mumkin. Bunga albatta bir necha omillar ta’sir qilmoqdaki dunyo yoshlari ilm olishda muammolarga duch kelmoqda:

1. Jahonda kishilik jamiyati o‘rtasida ijtimoiy tabaqalanish darajasi kun sayin ko‘payib bormoqda. Bozor iqtisodiyotining eng shafqatsiz qonuniyatlaridan biri odamlarni ijtimoiy guruhlarga (boy, o‘rta hol va kambag‘al qatlamga) bo‘lib yuborishi mumkin. Masalan aytishiimiz mumkinki, dunyo aholisning katta qismi istiqomat qiladigan davlatlardan Xitoy va Hindiston bugungi kunda ijtimoiy tabaqalanish ostonasida turibdi. To‘g‘ri Xitoy bozor iqtisodiyotiga o‘tishning “klassik formasi”ni saqlab qolgan holda yani “har qanday holatda ham davlat bosh islohotchi” degan tamoyilga amal qilgan holda inson tafakkurini ilm va mehnatga safarbar etmoqda. Hindistonda bu masalaga “g‘arbcha demokratiya” sifatida qaraladi va davlatning bosh islohotchiligi xalqning qo‘liga o‘tdi. Bunda esa odamlar o‘rtasida ijtimoiy guruhlarning yuqori qatlamlari paydo bo‘la boshlaydi. Chunki boshlag‘ich ta’limdan tashqari ta’lim to‘liq xususiy sektorning qo‘liga o‘tdi. Bunday sharoitda puli bor o‘qiydi, puli yo‘q ta’lim ololmaydi va jamiyatdagi eng quyi bo‘g‘inga tushib qoladi. Bunday vaziyatda insoniyat uchun eng qadrli bo‘lgan ta’lim olish tamoyili faqat ijtmioiy jihatdan o‘ziga to‘q insonlar ommasi o‘rtasida namoyon bo‘ladi.

2. Ta’lim olish bugungi kunda har bir millatning xarakteriga aylanishi zarur va kechiktirib bo‘lmas islohotlar jarayonidir. Bizning davlatimiz bu islohotlarni 1991 yil mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab davlat siyosati darajasiga chiqargani hammamizga ma’lum. Lekin ta’limdagagi islohotlar hozir globalizatsiya bilan shunchalik omuxtalashib ketdiki, bugungi 21 asr ta’lim tizimi insoniyat oldiga har kuni, har soatda yangilik qilishni talabini qo‘ymoqda. Bu islohotlar asnosida kishilik jamiyati juda ko‘p muammolarga duch kelishi barobarida yangi imkoniyatlarga ham ega bo‘lmoqda.

Yoshlarga berilayotgan ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirishda albatta xorij tajribasidan andoza olish asosida rivojlantirish zarur. Shu bilan birga xorij tajribasi milliy mentalitetga asoslangan holda uzlusiz ta’lim poydevoriga tamal toshi qo‘yilmog‘i lozimdir. Lekin uzlusiz ta’limdagagi mavjud muammolaridan biri bizning milliy ta’lim tizimimiz bir xorijiy davlat ta’lim tajribasiga tayanilmaganlidadir. Aytish mumkinki, maktabgach ta’lim tizimi Janbiy Koriyanikiga, xalq ta’lim tizimi Finlandiyanikiga, professional ta’lim tizimi Germaniyanikiga, oliy ta’lim tizimi Boloniya, Garvard v.h.larga mo‘ljallangan holda davlat o‘quv dasturlari va ishchi o‘quv dasturlar ishlab chiqilmoqda. Bu esa uzlusiz ta’limda mavjud muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayni bu jarayon ta’lim olayotgan yoshlar tafakkurida uzilishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

3. Inson tafakkuri, xususan, yoshlarning ongini shakllantirish ustida tinmisiz ishlash Falsafa fanining asosiy muammolaridan biridir. Yoshlar tafakkurini shakllantirishda, borliq, bilish, mantiq, dialektika juda katta o‘rin tutadi. Biz falsafa fani orqali olam va odam o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarda yoshlardagi mavjud qarashlarni o‘zgartirishimiz, tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi. Fan ana shu mexanizmni yoshlar ongiga olib kirishga, tahlil qilishga (sintez), aniq va noaniq qarashlarda to‘g‘ri xulosa chiqarishga va shu orqali o‘z mualliflik hukmiga ega bo‘lishga undaydi.

Taraqqiyotimiz jadallik bilan rivojlanar ekan inson tafakkurisiz buni uddasidan chiqib bo‘lmaydi albatta. Bunda, albatta ong, tafakkur ustida ishslashni talab etadi. Chunki bugingi kun yoshlariда hayotga nisbatan munosabatlarni shakllantirishda ko‘proq murakkab (qiyin) emas, balki oddiy (onson) jarayonlar orqali o‘z qarashlarini shakllantirish jarayonlari amalga oshirilmoqda. Bu aqliy yoki jismoniy mehnat bo‘ladima bu esa oxiri oqibatda yoshlar xarakterida o‘z egoizmini shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, olamlarning robbisi inson deb atalmish maxluqotga “ong, tafakkur” berdi. Zamin ustidan hukmronlik qilish vakolatini berdi. Inson mana shu vakolatlar asosida o‘z biliimni qadriyat darajasiga ko‘tarilishini va uni insoniyat boshqa irqlariga, millatlarga va elatlariga ulashishmog‘i lozim bo‘ladi. Ana shu bilim “insonni nechog‘lik ulug‘ mavjudod” ekanligini ko‘rsatadi. Biz Falsafa fani orqali inson ongini boshqarish, takomillashtirish rivojlantirish bo‘yicha bir qancha muammolarni ko‘rib chiqdik va o‘z taklif tavsiyalarimizni ilgari surdik.

#### **Foydalanilgan adabiyot**

1. E.Xaitov “Jamiyat ma’naviy yuksalishida innovatsion siyosatning o‘rni” mavzusidagi siyosiy fanlari falsafa doktorligi ilmiy darajasini olishdagi ishi. T: 2021 yil.
2. N.Mamatov “Tolerantlik “Ilk qadam”dan boshlanadi” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Toshkent Iqtisodiet Universiteti 2019 yil. 0,6 bt